

## MASALALAR YECHISHNI O'RGATISHDA O'QITUVCHINING KREATIV YONDASHUVINI RIVOJLANTIRISH

**Xunarova Nargiza Eshboyevna**

*Ohangaron shahar 8-maktab  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada matematika fanlarini o'qitishda innovatsion usullardan foydalanish hamda innovatsion metodlarning ahamiyati xususidagi fikrlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *matematika, metod, innovatsiya, fikrlash, xulosa chiqarish, "zinama - zina", "grafik test", rivojlanish.*

**Аннотация:** *в данной статье рассматривается использование инновационных методов в обучении математике и значение инновационных методов.*

**Ключевые слова:** *математика, метод, инновация, мышление, выводы, «шаг за шагом», «графический тест», развитие.*

**Annotation:** *this article discusses the use of innovative methods in the teaching of mathematics and the importance of innovative methods.*

**Key words:** *mathematics, method, innovation, thinking, drawing conclusions, "step by step", "graphic test", development.*

Shiddatli axborotlashuv jarayoni amalga oshib borayotgan hozirgi davrda har bir soha kishisi zamon bilan hamnafas ravishda innovatsion texnologiyalarga, innovatsion vositalarga murojaat qilishiga to'g'ri kelmoqda. Shu jumladan, matematika fani ham bunday oqimdan chetda qolayotgani yo'q. O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotida xalqning boy ma'naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlarga hamda hozirgi zamon madaniyati, iqtisodiyoti, ilmi, texnikasi va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim tizimini barpo etish dolzarb ahamiyatga ega.

Matematika fanini o'rganishda ushbu natijalarga erishishni maqsad qilib olinadi:

1. Matematikaning hozirgi zamon taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatini anglash;
2. O'quvchining matematik hisoblash texnologiyalarining qo'llanilishiga qiziqishi;
3. Amaldagi dastur asosida matematik jarayon va texnologiyalarni o'rgatish;
4. Ayrim masalalarning matematik modellarini tuza bilish va uni tahlil qilish;
5. Matematik fikrlash va xulosa chiqarish;
6. Matematik bilimlarni chuqurlashtirishga yo'naltirib, bu bilimlarni o'z faoliyatida qo'llash.[1]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 – yil 29 – apreldagi “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 – yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 5712 – son farmoni qabul qilindi. Hamda ushbu konsepsiya doirasida o'quvchilarning tanqidiy va mantiqiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish, kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan

holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish, o'quvchilarning bilim darajasini baholashda xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda ishtirok etishlarini nazarda tutgan.

Innovatsion metodikalar o'quvchilarning yangi mavzuga qiziqishini kuchaytirib, darslar davomidagi faolligini yanada oshirishni talab etadi. Shu bois har bir darsga tayyorgarlik asnosida talabalar va o'quvchilar, shuningdek bolalarning fikrlash jarayonini faollashtiradigan, nazariy ma'lumotlarni mustaqil o'zlashtirishga yo'naltirilgan samarali metodlarni tanlashga alohida e'tibor berish zarur.

Innovatsion metodikalarni kichik guruhlarda qo'llash yanda samaralidir. Qadimgi rim mutaffakiri Kivintilian: "Agar o'quvchilar bir – biriga o'rgatsa, mustahkamroq va chuqurroq bilimga ega bo'ladi" [2] deb ta'kidlagan. Ma'lum bir mavzuni, undagi qonun va qonuniyatlarni ta'lim oluvchilarning o'zlari qayta kashf etishlarini tashkil etish o'qituvchilardan jiddiy ilmiy – metodik va pedagogik tayyorgarlikni talab etadi. Ushbu maqsadni amalga oshirishda fanlararo aloqa katta ahamiyatga egadir. Shu maqsadda matematika fanini o'qitishda foydalanish mumkin bo'lgan metodikalar juda muhimdir. Matematika darslarini o'tishda qo'llaniladigan innovatsion metodlardan biri, "Bo'lishi mumkin emas" metodi. Misol va masalalarni yechishda har bir bosqich alohida – alohida ishlanganda haqiqatdan yechimga ega to'g'ri va noto'g'ri usullar aniqlanadi. Yoki "Zinama - zina" metodi orqali har bir amal to'g'riligi va ketma – ketligi tekshiriladi, talaba va o'quvchilar o'tgan har bir bosqichdan so'ng bir pog'ona yuqoriga ko'tariladilar va bu ularda yanada motivatsiya uyg'otib, qiziqishlarini ortirib boradi. Shuning bilan birga "Grafik test", "Tushunchalar tahlili" metodlari ham samarali natijalar beradi.

Innovatsion metodikalardan foydalanish o'quvchilarda hamkorlik qilish kompetensiyasini ham shakllantiradi. Qolaversa, nazariy ma'lumotlarni yetarli o'zlashtirib ulgurmagan o'quvchi faol sherigining amaliy yordami tufayli topshiriqni bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Pedagogik – psixologik tashxis natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, ta'limga individual yondashish, innovatsion metodikalar o'qish samaradorligini oshirish bilan birga, o'quvchilarning umumiy rivojlanish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Darslarda innovatsion metodikalardan samarali foydalanish o'qituvchining ko'p qirrali va rang – barang faoliyatini kompyuter zimmasiga yuklash emas, balki o'quv faoliyatini jadallashtirish, bilim olish faoliyatini faollashtirish, xalqaro ta'lim tajribasini o'rganish va ta'lim samaradorligini oshirishdan iboratdir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, respublikamiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirishni talab etmoqda. Yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsion usullarning asosiy xususiyatlaridan biri, ta'lim oluvchilarga bilimni tayyor holda emas, balki qayta kashf etish orqali berishni talab etadi. Haqiqatdan inson o'z faoliyatida tajriba, izlanish va o'rganish orqali olgan ma'lumotlarnigina bilim deb atash mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :**

1. Qayumov A. Matematikani o'qitishning innovatsion vositalari. Toshkent-2013
2. SHotemirov Y.S. Ulug'nazarov M.J. Karabekyan S.X. Matematika fanini o'qitishda innovatsion usullardan foydalanishning ba'zi xususiyatlari haqida.
3. Samadovna.L. Fanlarni o'qitishda innovatsion usullar.
4. <https://baxtiyor.uz/fanlarni-o-qitishda-innovatsion-metodikalar>